

Buzrukova Maxina Muxamadxonovna

Sharof Rashidov nomidagi SamDU DSc doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada turistik qo'llanmalar tahlil qilingan bo'lib, turizm sohasidagi muloqotning lisoniy va nolisoniy kodlar yordamida amalga oshirilishi o'rganilgan. Turistik diskursning lingvistik holatini tahlil qilish, turizmning global miqyosda dinamikasi va ta'sirini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Globallashuv davrida, turizm yanada qulay va keng tarqalib borayotgan bir paytda, turizm nutqining lingvistik jihatlari alohida e'tiborga sazovor bo'ladi.

Kalit so'zlar: turistik diskurs, ekskursiya, turistik qo'llanma, institutsional nutq, polifoniya, potentsial turist, kommunikativ taktika, tur operator, videoqo'llanma, audioqo'llanma.

Turizm sohasidagi muloqot Karebina (2008) tomonidan yoritilgan bo'lib, u verbal va noverbal kodlar yordamida amalga oshiriladi. Bu jarayonda yaratiladigan matnlar kreolizatsiyalangan xususiyatga ega, ya'ni polimodal va polikodlardan foydalaniladi (qarang Anisimova, 1992).

Ko'pchilik janrlarda ustunlik qiluvchi verbal kod semiotik jihatdan bir xildir. Bo'lajak sayyohlarning xorijiy til muhitiga moslashishini osonlashtirish maqsadida, turistik yo'nalishdagi matnlarda adresatning ona tilidan taqdim etilayotgan mamlakatning rasmiy tiliga o'tishlar kiritiladi. Shu sababli qo'llanmalarda ikki tilga oid toponimlar va antroponimlar uchraydi.

Kodlar o'rtasidagi o'tish ikki yo'nalishda amalga oshirilishi mumkin - ona tilidan mahalliy tilga va aksincha. Bu jarayonda mahalliy diqqatga sazovor joylar nomlarini tarjima qilish orqali boshqa madaniyatni tushunishni osonlashtirish yoki nomlarning asl shaklini jonlantirish maqsadida inglizlashtirish va o'zbeklashtirish usullaridan foydalanish mumkin. Masalan: *In between is the Tilla-Kari (Gold-*

Covered) Medressa, completed in 1660, with a pleasant, garden-like mosque courtyard [Mayhew: 1999].

Ikonik belgilar, Charlz Pirsning tasnifiga ko'ra, ya'ni belgilangan hodisaga o'xshashlik printsipli asosida, turistik diskursda mustaqil ikonik (tasviriy) kodni shakllantiradi. Bular qo'llanmalardagi boshqa vositalar, sayohat agentliklarining veb-sahifalaridagi rasmlar, ularning mijozlarga reklama taqdim etishlari hamda virtual sayohatlardagi video ketma-ketliklarni o'z ichiga oladi.

O.V. Bokova matn va boshqa vositalar munosabatlarining besh xil turini ajratadi: muvofiqlashuv, to'ldirish, aniqlashtirish, farqlanish va neytrallik [Bokova 2012]. Bizning tadqiqotimiz verbal va vizual kodlar o'rtasidagi munosabat turizm sohasiga xos matn janriga bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Qo'llanmalar yoki reklama maqolalari kabi janrlarda verbal xabar nisbatan nolisoniydan ustundir, videoqo'llanmalar yoki virtual sayohatlar kabi janrlarda esa, aksincha. Qo'llanmalar yoki reklama maqolalari janrlarida ikki tomonlama munosabat xarakterlidir: matn va rasm ostidagi yozuv o'rtasida, o'rtasida verbal kod ishlatiladi, shuningdek, verbal ma'lumot va tasvir o'rtasida ham shu holat kuzatiladi. Bu, tadqiqotchilar tomonidan avvalroq aniqlangan matn va tasvir munosabatlarining turlarini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi:

1) Muvofiqlashuv. Tasvir matnda mavjud bo'lgan ma'lumotni namoyon qiladi Masalan: *The "other half" of the Victoria and Albert museum consists of beautifully described exhibits laid out along a series of corridors sweeping you through 400 years of British high-class living / [Tasvir va uning tagidagi yozuv] BRITISH GALLERIES 1500-1900 [London: 2004].* Ta'kidlash kerakki, matnda mavjud bo'lgan ma'lumot tasvir va yozuv o'rtasida bo'linadi: verbal xabar rasmdagi ob'ektni aniqlashga imkon beradi, ya'ni nominativ vazifani bajaradi, tasvir esa mos bilimlarga ega bo'lgan adresatga arxitektura ob'ektining uslubi va yoshini aniqlash imkoniyatini beradi, ya'ni tasniflash vazifasini bajaradi.

Tasvir ostidagi yozuv matn va tasvir o'rtasidagi denotative bog'liqlikni ko'rsatuvchi ma'lumotnini o'z ichiga olishi mumkin: [Matn] *Here in execution site, enemies of the crown would kneel for the final time and, with their hands tied*

behind their backs, say a final prayer, then lay their heads on a block, and –shlit the blade would slice through their necks as their heads tumbled to the ground / [Tasvir va uning tagidagi yozuv] That very block [London: 2004].

2) To'ldirish. Tasvir ostidagi yozuv asosiy matnda mavjud bo'lgan bayonotning bir parchasi bo'lishi mumkin, masalan: [Matn] ... *Bir kvartal narida Adrianou ko'chasida topamiz o'zimizni. Bu ko'cha chuqur qadimiylikda mavjud bo'lgan va rasman Afina shahridagi eng qadimgi ko'cha hisoblanadi /* [Tasvir va uning tagidagi yozuv] Adrianou ko'chasida [Gretsiya 2011: 108]. Bu holatda tasvir matnning boshqa zamon doirasidagi davomi bo'ladi: matn hikoyani tarixiy maydonga o'tkazadi, tasvir esa tasvirlanayotgan joyning hozirgi holati haqida ma'lumot beradi. Shunday qilib, nolisoniy xabar verbalni to'ldiradi.

3) Aniqlashtirish. Tasvirlar quyidagi tarzda verbal xabarni kengaytiradigan va aniqlaydigan ma'lumotni o'z ichiga olishi mumkin:

1. Tasvir asosiy matnda tasvirlangan butun narsaning bir qismini ko'rsatadi: [Matn] *Mis Chavandozi /* [Rasmlar va ularning tagidagi yozuvlar] *Rossiya imperatori Pyotr I ning otliq haykali, "Mis Chavandozi" yodgorligi sifatida mashhur, Sankt-Peterburgdagi Senat maydonida joylashgan* [<https://wikiway.com/russia/sankt-peterburg/mednyy-vsadnik/>]. Aniqki, bu holatda yozuv va illyustratsiya muvofiqlashuv munosabatlarida bo'ladi.

2. Bir varaq yoki bukletda ikki va undan ko'p tasvirlar kuzatuvchini asosiy matnda tasvirlangan joy ichida harakatlanishini ta'minlaydigan makoniy rivojlanishni ifodalaydi.

4) Farqlanish. Verbal xabar noverbalga mos kelmaydi, ya'ni ular o'rtasida mantiqiy kesishuv yo'q, lekin ular birgalikda har biri o'z ichiga olgandan murakkabroq qolipni tashkil etadi, Masalan: [Matn] ... *Universitet bulvari yashillikka cho'mgan, hamma yoq juda toza va yaxshi parvarishlangan. Ko'p sonli daraxtlar mo'l ko'l soyabon beradi, bu issiq quyoshli kunda juda muhim. Bulvarning boshida Amir Temur haykali joylashgan /* [Rasm va uning tagidagi yozuv] *Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti* [<https://www.tripadvisor.ru/>]. Bunday matn va tasvir kombinatsiyasi assotsiativ

bog'lanishlarni faollashtiradi.

Asosiy matn yoki hatto tasvir yozuvi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lmagan tasvirlar ma'lum bir hissiy kayfiyat yaratish uchun kiritilishi mumkin, masalan: [Matn] *O'zbekiston turistik xaritasi* / [Yozuv] *Ipak yo'lida turizm* / [Rasm va uning tagidagi yozuv] *Sharq marvaridi Registon maydoni* [www.uzbekistan.travel]. Bunday hollarda, ikonik belgilardan olingan tasvirlar ramziy belgilarga aylanadi. Turli hissiyotlarni ramziy ifodalovchi tasvirlar o'rtasidagi matn ichidagi o'zaro ta'sir, qabul qiluvchida hissiy boylikka nisbatan tajribalarni shakllantiradi, bu esa ma'lum mamlakatga sayohat qilish uchun muhim rag'batlantiruvchi omil hisoblanadi.

Ikonik kodning vazifalari so'nggi yillarda bir qator ilmiy tadqiqotlarda batafsil o'rganilgan. E.V. Perventseva [Perventseva 2007] ikonik kodning lanjor, qo'shimcha va mantiqiy vazifalarini belgilaydi. Lanjor (якорная) vazifasi matn ma'lumotini qabul qiluvchining ongida uning tasvirini shakllantirish orqali mustahkamlaydi, qo'shimcha vazifa vizual tasvirdan o'qib olingan ma'lumotlar hisobiga lisoniy ma'lumotlarning kengayishida namoyon bo'ladi, mantiqiy vazifa matnning qismlari orasidagi ma'noli bog'lanishni makon yoki vaqt davomiyligidagi bo'shliqlarni to'ldirish orqali bajariladi. Turistik diskursda tasviriy kod mantiqiy vazifasining amalga oshirilishi matn ichidagi interpiktorial o'zaro ta'sir orqali osonlashadi. Shunday qilib, matnning turli qismlarida taqdim etilgan eng muhim turistik diqqatga sazovor joylarning tasvirlari matnning boshida bir sahifada to'plangan bo'lishi mumkin [Gretsiya 2011: 3]. Bunday mozaika tasviri inson qobiliyatlarining makonni vizual qamrab olish cheklovlarini yengishga yordam beradi, qismlarning vizual tasvirlaridan mamlakatning yaxlit tasvirini shakllantiradi. Xuddi shu vazifa, shuningdek, qo'llanmalarda mavjud bo'lgan mamlakatning jo'g' xaritalari, hududning topografik xaritalari va shahar rejaları tomonidan bajariladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Анисимова Е.Е. Паралингвистика и текст (к проблеме креолизованных и гибридных текстов) // Вопросы языкознания. - 1992. - № 1. - С. 7178.

2. Бокова О. В. Функции иконических средств в немецкоязычных сообщениях о преступлениях // Вестник МГЛУ. - Сер. Языкознание. - Вып. 19 (652). Семиотическая гетерогенность языковой коммуникации: теория и практика. - Часть 1. - М., 2012. - С. 52-60.
3. Греция: [путеводитель] / Д. Крылов, Д. Кульков. - 2-е изд. - М.: Эксмо, 2011. - 352 с.
4. Каребина О.П. Семантическая организация лингвистических и паралингвистических феноменов в текстах предметной области «Туризм». Дис. ... канд. филол. наук. - Краснодар, 2008. - 191 с. (Karebina O.P. Semanticheskaya organizatsiya lingvisticheskix i paralingvisticheskix fenomenov v tekstax predmetnoy oblasti «Turizm». Dis. ... kand. filol. nauk. - Krasnodar, 2008. - 191 s.).
5. Первенцева Е. В. Смысловое пространство художественного дискурса и роль визуальной составляющей в его формировании (на материале англоязычной художественной прозы): автореф. дис. ... канд. филол. наук. - М., 2007. - 192 с.
6. Пирс Ч. С. Что такое знак? // Вестник Томского государственного университета. Сер. Философия. Социология. Политология. - 2009. - № 3 (7). - С. 88-95.
7. Central asia: [guidebook] / B. Mayhew, Et al. - USA.: Lonely planet, 1999. – 302 p.
8. Germany: [guidebook] / K. Christiani, Et al. - USA.: Lonely planet, 2010 – 53 p.
9. London: [guidebook] / R. Steves'. – USA.: Avalon Travel, 2004 – 301p.
Elektron manba:
<https://wikiway.com/russia/sankt-peterburg/mednyy-vsadnik/>
<https://www.tripadvisor.ru/>
<https://www.tripadvisor.ru/>